



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 7-mart

106-1-0-Q/25

Andijon viloyati hokimligi

Andijon viloyati hokimligida “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasini tuzish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Budget mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 21¹-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Budget mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-sonli farmoni ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur farmonga asosan Andijon viloyati hokimligida moliyaviy va boshqa xavflarning oldini olish uchun “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda - Qo‘mita) tuzilsin hamda uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, Ichki audit xizmati - Qo‘mitaning ishchi organi hisoblanadi.

4. Quyidagilar Qo‘mitaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

ichki audit xizmati tomonidan tizim faoliyati va maqsadli ko‘rsatkichlarga (indikatorlarga) erishish bilan bog‘liq moliyaviy, operatsion hamda ichki nazoratga oid aniqlangan xavflarning ro‘yxati shakllantirilishi va yangilab borilishini ta‘minlash;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini hamda aniqlangan xavflarni bartaraf etish;

xavflarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha ichki audit xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish;

har chorak yakuni bo‘yicha xavflarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan ichki audit xizmat tomonidan amalga oshirilgan ishlarni atroflicha muhokama qilish;

normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo‘llash amaliyotidagi xavflarning yuzaga kelishiga imkon beruvchi ziddiyatlarni bartaraf etish, tegishli me‘yorlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

xavflarning oldini olishni nazarda tutadigan istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi



SH.Q.Abdurahmanov

Andijon viloyat hokimining
2025-yil 7-martdagi
106-1-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Andijon viloyati hokimligining “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi
TARKIBI

№	Ismi sharifi	Lavozimi
1	Abdurahmanov Shuxratbek Qushakboevich	Andijon viloyati hokimi - qo‘mita raisi
2	Karimov Dilshadbek Abdumalikovich	Andijon viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari -qo‘mita raisining o‘rinbosari
3	Turg‘unov Sardorbek Ibrohimovich	Andijon viloyati hokimligi Ishlar boshqarmasi boshlig‘i
4	Jobborov Botirjon Toxirovich	Andijon viloyati hokimligi Yuridik xizmati boshlig‘i
5	Yakubova Nazira Anvarovna	Andijon viloyati hokimligi bosh hisobchisi
6	Raxmonov Muxtoxiddin Maxamadmo‘ydinovich	Andijon viloyati hokimligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat qilish sho‘basi mudiri
7	Abduraxmonov Jaxongir Baxramovich	Andijon viloyati hokimligi Ichki audit xizmati xodimi - qo‘mita kotibi

Izoh: Qo‘mita a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.